



BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TARKIBI VA YASASHINI O‘RGATISH METODIKASI

Ro‘zimurodova Sevinch Shuhrat qizi

Jizzax politexnika instituti talabasi

Achilov Elyor Temirovich

Jizzax politexnika instituti “Umumtexnika fanlari” kafedrasida assistenti

Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so‘zning morfemik tarkibi III sinfda o‘rganiladi. IV sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko‘zda tutiladi.

Avvalo, til materialini o‘rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur. Til materialini o‘rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o‘zaro bog‘lanishdagi bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirishni ta‘minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish tushuniladi. So‘zning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim so‘z yasashiga oid va grammatik bilimlarni o‘zlashtirish:

a) dastur materialini o‘rganish tizimida so‘zning morfe-mik tarkibini o‘rganishning o‘rni bilan;

b) “o‘zak”, “o‘zakdosh so‘z”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan;

c) so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasashining o‘zaro bir-biriga ta‘sir qilishi bilan;

d) morfemalarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish us-tida ishlash bilan bog‘liqligini belgilab beradi.

Mavzuni o‘rganishda uch bosqich ajratiladi:

BIRINCHI BOSQICH – so‘z yasashini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o‘quvchilarni bir xil o‘zakli so‘zlarning ma‘no va tuzilishiga ko‘ra bog‘lanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qo‘yilishiga sabab, birinchidan, so‘zning ma‘no va tuzilishi jihatidan bog‘lanishini tushunish, o‘zining lingvistik mohiyatiga ko‘ra, bir xil o‘zakli so‘zlarni va so‘z yasashini o‘zlashtirishga asos hisoblanadi. Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos bo‘lgan so‘zlar bir-biri bilan ma‘no va tuzilishi jihatidan bog‘lanadi: ish – ishchi, g‘alla – g‘allakor. Ikkinchidan, o‘quvchilar bir xil o‘zakli so‘zlarni va morfemalarni o‘rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ular bir xil o‘zakli so‘zlarning ma‘nolaridagi umumiylikni tushunishda qiynaladilar, chunki ularda mavhum tafakkur hali yetarli rivojlanmagan bo‘ladi; o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarning vazifalarini o‘zlashtirishda ularga bir xil o‘zakli so‘zlarning ma‘no va tuzilishi jihatidan o‘xshashligi va farqini aniqlash anchagina qiyinlik qiladi. SHuning uchun so‘zning morfemik tarkibini maxsus o‘rganishdan oldin uning ma‘no va tarkibiga ko‘ra yaqinligi kuzatiladi. I sinfda kuzatish o‘rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so‘zlarning ma‘nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog‘lanadi. I sinfda kim?, nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning “Nima uchun u yoki bu narsa shunday nomlangan?” savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o‘zakli so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni tushunishga tayyorlashda anchagina mos va qiziqarli usul



hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o'quvchilar "Nega so'zlar o'zakdosh hisoblanadi?", "Bir so'zdan boshqa so'z qanday hosil bo'ldi?" savollariga javob berishga tayyorlanadilar. Tilda juda ko'p so'zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. SHuning uchun o'quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tildagi bir so'z bilan ikkinchi so'z o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga o'tish mumkin. Masalan, "Nega kishilar paxta ko'p ekilgan joyni paxtazor (paxta – paxtazor), daraxt ko'p ekilgan joyni daraxtzor (daraxt – daraxtzor) deb nomlashgan?", "Nega kishilar bir uyni g'ishtli (g'isht – g'ishtli), boshqasini sinchli deyishadi?" O'quvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan so'zlarning ma'nosi va tarkibidagi umumiylikni topishga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning yasalishi mohiyatini tushunishga tayyorlaydi; ular bir so'z boshqa so'zdan o'zaro ma'no jihatdan bog'lanishi asosida yasalishini, o'z navbatida, shu so'z bilan nomlangan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar. O'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ularda so'z yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlasha boradi.

IKKINCHI BOSQICH – bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi – so'zlarning ma'noli qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish, "o'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish, bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi.

"O'zakdosh so'zlar" tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya'ni mazmuniy umumiylikni (ma'nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko'ra umumiylikni (umumiy o'zak mavjudligini) o'zlashtirish bilan bog'lana-di. SHuning uchun bu belgilarni o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bu o'quvchilarda bir xil o'zakli so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar gul, gulzor, gulli (ko'ylak), gulladi so'zlarini taqqoslaydilar, bu to'rt so'z ma'nosiga ko'ra o'xshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun ularni bitta o'zakdosh so'zlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar.

UCHINCHI BOSQICH – o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga "o'zak", "so'z yasovchi qo'shimcha", "shakl yasovchi qo'shimcha" tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasavvurlarni o'stirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shimchasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'stirish kiradi.

FOYDLANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Narmatovich N. N. Methodology Of Training Engineers For Professional Activity On The Basis Of Module-Competent Approach //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – T. 48. – №. 12.



2. Narbekov N. N. PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ENGINEERING ACTIVITIES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ДВИГАТЕЛЬ НАУКИ: сборник статей Международной научно-практической конференции (12 февраля 2022 г, г. Калуга).-Уфа: OMEGA. – 2022. – С. 15.
3. Нарбеков Н. Н. Модульно-компетентностный подход в современном высшем образовании //Universum: технические науки. – 2022. – №. 1-1 (94). – С. 10-12.
4. Нарбеков Н. Н. ИННОВАЦИОННАЯ ИНЖЕНЕРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ЕЕ СТРУКТУРА //Развитие системы знаний как ключевое условие научного прогресса. – 2022. – С. 174-178.
5. Нарбеков Н. Н. ОПРЕДЕЛЕНИЕ РАСЧЕТОВ В ТОЧНЫХ НАУКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СЛОВЕСНЫХ МЕТОДОВ //ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И ОБЩЕСТВА В КОНТЕКСТЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ. – 2023. – С. 37.
6. Игамбердиев Х. Х., Нарбеков Н. Н. ПУТИ РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-1 (86). – С. 32-34.
7. Игамбердиев Х. Х., Нарбеков Н. Н. ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПРИКЛАДНОЙ МЕХАНИКЕ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ //вопросы технических и физико-математических наук в свете современных исследований. – 2019. – С. 28-33.
8. Игамбердиев Х. Х., Нарбеков Н. Н. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ //ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ. – 2021. – С. 31-33.
9. Ахмедов Б. И. и др. ЧИЗМА ГЕОМЕТРИЯДА АКСОНОМЕТРИК ПРОЕКЦИЯЛАР ТАРИХИ //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 16. – С. 112-116.
10. Нарбеков Н. Н. и др. ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ РЎЛИ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 139-142.
11. Ахмедов Б. И. и др. КЛАССИК ГЕОМЕТРИЯНИНГ УЧ МАСАЛАСИ ҲАҚИДА КИЗИКАРЛИ ФАКТЛАР //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 119-123.
12. Нарбеков Н. Н. и др. КОНСТРУКЦИЯЛАРДАГИ МАРКАЗИЙ СИҚИЛИШДА БЎЛГАН ЭЛЕМЕНТЛАРИНИ ҲИСОБИ //INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. – 2024. – Т. 2. – №. 23. – С. 69-72.
13. Игамбердиев Х. Х., Нарбеков Н. Н. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ УСИЛИЕ ОТРЫВА ЛИСТЬЕВ И КОРОБОЧЕК ЗЕЛЕНЦОВОГО КЕНАФА



//ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И ОБЩЕСТВА-ПУТЬ К МОДЕРНИЗАЦИИ И ИННОВАЦИОННОМУ РАЗВИТИЮ. – 2020. – С. 84-88.

14. Нарбеков Н. Н., Парманов Н. Н. ТАЛАБАЛАРНИ МОДУЛЛИ-КОПЕТЕНЛИ ЁНДАШУВ ОРҚАЛИ ЎҚИТИШ МУАММОЛИ СИФАТЛАРИ //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 12. – №. 2. – С. 83-85.

15. Нарбеков Н. Н., Парманов Н. Н. ТАЛАБАЛАРНИ МОДУЛЛИ-КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚИТИШ АФЗАЛЛИКЛАРИ //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 12. – №. 2. – С. 86-89.

16. ГАППАРОВ Б. Н., НАРБЕКОВ Н. Н. ПЕДАГОГИКА КАК ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК НОВЫХ ИДЕЙ И РУКОВОДЯЩИХ ПРИНЦИПОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ //Общество. – 2020. – №. 1. – С. 71-73.

17. Игамбердиев Х. Х., Нарбеков Н. Н. ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЕ ПРИКЛАДНОЙ МЕХАНИКИ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ //ББК 22+ 30 В74 Председатель редакционной коллегии. – С. 28.

18. Бултаков Т. и др. МАЛОГАБАРИТНЫЕ УЧЕБНО-ЛАБОРАТОРНЫЕ УСТАНОВКИ-ВАЖНЫЙ ФАКТОР АКТИВИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ //Передовые научно-технические и социально-гуманитарные проекты в современной науке. – 2018. – С. 80-82.

19. Narbekov N. N., Parmanov N. N., Qabilov B. U. MODULLI-KOMPETENTLI YONDOSHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA BOSQICHMA-BOSQICH TAYYORLASH //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 178-180.

20. Narbekov N. N., Parmanov N. N., Qabilov B. U. TEXNIKA OTM LARI TALABALARINI INNOVATSION MUHANDISLIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 14. – С. 132-134.

21. Xudayberdiev A. A. et al. YERGA ISHLOV BERISH USULI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 532-535.

22. Narbekov N. N., Parmanov N. N., Qabilov B. U. “МЕХАНИКА” FANI O‘QUV-USLUBIY MAJMUASINI LOYIHALASHTIRISHDA MODULLI-25. KOMPETENT YONDASHUV //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 11-15.

23. Mirzakabilov N. X. et al. AHOLINI QAMBAG‘ALLIKDAN CHIQRISH VA ULARNING QATLAMINI QISQARTIRISH MUAMMOLARI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 4. – №. 37. – С. 13-18.

24. Quychiyev O. R. et al. EKISHDAN OLDIN TUPROQQA ISHLOV BERISH KULTIVATORLARI //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 14. – С. 171-174.



25. Narbekov N. N., Parmanov N. N. "MATERIALLAR QARSHILIGI" FANINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY DASTURLARDAN FOYDALANISH VA ULARNI QO'LLASH //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – T. 12. – №. 2. – C. 80-82.

26. Raximovich K. O. et al. TO 'RTBURCHAK SHAKLLARINI HOSIL QILISH USULLARI VA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2024. – T. 3. – №. 25. – C. 13-18.

27. Raximovich K. O. et al. XXI ASR AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2024. – T. 3. – №. 29. – C. 119-124.

28. Narbekov N. N. et al. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2024 //T. – T. 2. – №. 21. – C. 178-180.

29. Ikromovich A. B. et al. KO 'P ORALIQLI STATIK ANIQ BALKALARNI DOIMIY KUCHLAR TA'SIRIGA HISOBLASH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 2. – №. 20. – C. 15-20.

30. Narmatovich N. N., Nurmuxammadovich P. N. UZUNLIKKA VA YUZAGA EGA BO 'LGAN QATTIQ JISMLARNING OG'IRLIK MARKAZI KOORDINATALARINI ANIQLASH USULLARI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 30. – C. 143-146.

31. Quychiyev O. R. et al. ИНФОРМАТИКА ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЙЎНАЛИШИДА ВИРТУАЛ ТУШУНЧА //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2024. – T. 2. – №. 25. – C. 225-229.

32. Narbekov N. N., Nizomov S., Burxonov R. R. Darslarda ma'naviy-axloqiy tarbiya berish o'quvchilarning jamiyat oldidagi ma'suliyatlarini shakllantirish omili //Научное знание современности. – 2020. – №. 2. – C. 44-47.

33. Narbekov N. N., Parmanov N. N. TEXNIKA OTM LARI TALABALARIDA ILMIY VA TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 2. – №. 21. – C. 14-19.

34. Nodir N. CALCULATION OF ELEMENTS IN CENTRAL COMPRESSION OF DEFORMABLE STRUCTURES //Universum: технические науки. – 2024. – T. 4. – №. 1 (118). – C. 23-25.

35. Narmatovich N. N., Nurmuxammadovich P. N. MUHANDISLIK FAOLIYATNING TARKIBIY TUZILMASI //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2024. – T. 3. – №. 26. – C. 6-12.

36. Narmatovich N. N., Nurmuxammadovich P. N. TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – T. 2. – №. 18. – C. 8-12.

37. Narmatovich N. N., Nurmuxammadovich P. N. TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSALARI TALABALARINI MUHANDISLIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA



PEDAGOGIK MUAMMOLAR //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 31. – С. 37-41.

38. Nodir N. APPLICATION OF TENSOR CALCULUS OPERATIONS FOR ELASTIC BODIES //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 4. – №. 1 (118). – С. 19-22.

39. Quychiyev O. R. et al. РОЛЬ КУЛЬТИВАТОРОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ //PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 8-12.

40. Raximovich K. O. et al. МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЭНГ САМАРАЛИ УСЛУБ ВА ВОСИТАЛАРИ //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022. – 2024. – Т. 3. – №. 25. – С. 8-13.

41. Нарбеков Н. Н., Эргашева Ш. Абдирауфова Маржона Тулкинжановна //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 93-98.

42. Нарбеков Н. Н., Парманов Н. Н. ТАЛАБАЛАРДА ЯНГИЛИК ЯРАТА ОЛИШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 73-77.

43. Нарбеков Н. Н., Парманов Н. Н. ИННОВАЦИОН МУҲАНДИСЛИК ФАОЛИЯТНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМИЛАРИ //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 295-299.

44. Нарбеков Н. Н., Парманов Н. Н. МАШИНА ДЕТАЛЛАРИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 15. – С. 196-200.

45. Нарбеков Н. Н. ИССЛЕДОВАНИЕ СТАТИЧЕСКИ НЕОПРЕДЕЛИМЫХ НАГРУЗОК НА ПЛАСТИНЫ ОСЕСИММЕТРИЧНЫЕ СОБСТВЕННОЙ ЧАСТОТЕ НА СТАТИЧЕСКИ НАГРУЖЕННЫХ КОЛЬЦЕВЫХ ПЛАСТИНАХ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-2. – С. 898-901.

46. Нарбеков Н. Н. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДА КОНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ДЛЯ РЕШЕНИЯ СТАТИЧЕСКИ НЕОПРЕДЕЛИМЫХ СИСТЕМ СТЕРЖНЕЙ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-2. – С. 902-905.

47. НАРБЕКОВ Н. Н. МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ КООРДИНАТНОГО ЦЕНТРА ТВЕРДОГО ТЕЛА С ДЛИНОЙ, ПОВЕРХНОСТЬЮ И ОБЪЕМОМ. – ООО "Аэтерна" КОНФЕРЕНЦИЯ: ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НАУЧНОМ РАЗВИТИИ: НОВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ Иркутск, 25 декабря 2023 года Организаторы: ООО "Аэтерна" БИБЛИОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ: Входит в РИНЦ: на рассмотрении Цитирований в РИНЦ: 0 Входит в ядро РИНЦ: нет Цитирований из ядра РИНЦ: 0 Рецензии: нет данных ТЕМАТИЧЕСКИЕ РУБРИКИ: